



TA'LIM TIZIMI VA ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARI INTEGRATSIYASIDA MAQSADLI KASBGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Mamajonova K.A.

Jizzax dalat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: maqsadli kasbiy tayyorgarlik, ta'lim, ishlab chiqarish korxonalari, integratsiya, o'qitish, amaliyot, kasbiy vakolatlar, mehnat bozori.

Ключевые слова: целевая профессиональная подготовка, образование, производственные предприятия, интеграция, обучение, стажировка, профессиональные компетенции, рынок труда.

Key words: targeted vocational training, education, manufacturing enterprises, integration, training, internship, professional competencies, labor market.

*Qaybir sohada bo'lmasin kishining qozongan muvaffaqiyati-unga
sarf qilgan mehnatiga proporsionaldir.
(Toshmuhammad Qori Niyoziy)*

*Agar siz kasbni to'g'ri tanlasangiz va unga butun vujudingizni bag'ishlasangiz,
u holda baxtning o'zi sizni qidirib topadi.
(K.D.Ushinskiy)*

Akademik olim Toshmuhammad Qori-Niyoziy va mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiylarning yuqorida keltirilgan oddiy, ayni vaqtda hikmatli fikrlarini yodga olganimiz bejiz emas. Zero yoshlarni har tomonlama uyg'un kamol toptirish, kasbiy dunyoqarashni boyitish va tanlangan kasbiga muhabbat ruhida o'stirish hamisha dolzarb masalalaridan biridandir.

Hayotda maqsad (baxt)ga erishish hardoim ham silliq davom etavermaydi. Ba'zan biror kasb tanlab olinadi-yu, ko'p o'tmay kasbga ko'nikmaslik, ishdan-ishga o'tish – ishdagi qo'nimsizlik, kasbni o'zgartirish hollari sodir bo'ladi. Albatta, bu kishining o'zigagina ta'sir ko'rsatib qolmay, balki oila turmush tarzi va barcha ijtimoiy sohalarga ham zarar keltiradi. Bundan ko'rinadiki, yoshlarni kasb tanlashga o'rgatish va maqsadli kasbga tayyorlash, ayniqsa

ta'lim tizimidagi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, bir necha o'ziga xos yo'nalishga ega.

Xo'sh, kasb tanlashga o'rgatish va kasbga yo'llash nima? U qanday olib boriladi? Maqolada anashu masala bilan bog'liq mulohazalar, ushbu maqola mavzusi asosida bayon qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, yoshlarning maqsadli kasb tanlashda ta'lim tizimi tomonidan olib boriladigan barcha ishlarning korxonalar, qurilish, transport tashkilotlari, qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat, hunarmandchilik, sog'liqni saqlash va hokazo sohalar integratsiyasi imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Integratsiya tushunchasi haqida bir necha qarashlar mavjud. Ulardan qisqa ma'lumotlarni keltiramiz. Integral atamasini dastlab XVII-asrda Y. Bernulli (1654-1705) – matematikaga kiritdi. Unga ko'ra oliy matematikada bu tushuncha cheksiz kichik sonlar yig'indisi sifatida qaraladigan butun miqdorni ifodalaydi. Shu tushunchadan kelib chiqib, keyingi “integrallash” tushunchasi: filosofiya, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa qator fanlarda foydalanila boshlandi. Shunga ko'ra integratsiya va integratsiyalashni ruscha-o'zbekcha lug'atda “bir butun qilib birlashtirmoq; yaxlit holga keltirmoq” deb izohlanadi. Shuningdek, “Integratsiya” franszchada integration – bir-biriga qo'shmoq, qatnashtirmoq ma'nolarini lotinchada integration – yaxlit integer atamasidan olingan bo'lib, tiklamoq, kamchiliklar o'rnini to'ldirmoq degan ma'noni anglatadi.

Integratsiya tushunchasini tavsiflash uchun olimlar “tizim”, “tizimlilik”, “aloqadorlik”, “umumlashtirish”, “yaxlitlash”, “elementlar”, “komponent (tashkil etuvchi)lar”, “qismlari” kabi atamalardan foydalanadilar. Shu ma'noda integratsiyaning yuqoridagi tavsiflari umum ilmiy tushuncha sifatida ko'p qirrali va ularning barcha tomonlari mohiyatini bitta maqolada ochib berish imkoniyati yo'q. Buni integratsiya g'oyasi didaktik jihatdan chuqur ildizga ekanligi bilan izohlash mumkin. Tahliliy mulohazalar asosida ta'lim tizimiga xos integratsiya yo'nalishlarini:

1. O'quv fanlari bilimlariga oid tushunchalarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
2. Ta'lim tizimida ortiqcha fanlarni bartaraf etish;
3. Dars mashg'ulotlari, bo'limlarida mavzularni o'rganish vaqtini qisqartirish;
4. Qayta takrorlanishlarni cheklash;
5. Ta'lim texnologiyalarini o'zgartirish;
6. O'quvchilarning bilimlarini rivojlantirish uchun nisbatan eng yaxshi pedagogik shart yaratish;



7. pedagogik jarayonda uning tashkil etuvchi tadbirlar va ular imkoniyatlarini hisobga olgan istiqbolli tizimini asoslash deyish mumkin.

Yuqoridagi aytilganlarga ko'ra, yoshlarni maqsadli kasb tanlashga tayyorlash istiqbolli tizimi integratsiyasi imkoniyatlarini o'zida o'qitishning interfaol (hamkorlikda) hamda integrativ (alohida qismlarni bir butunholga keltirish) uslublari va imkoniyatlarini mujassamlaydi deyish mumkin bo'ladi.

Hozirgi ta'lim tizimimizdagi o'qitish uslublarni umumlashtirib, quyidagi turlarga (1-jadval) va ularga xos yoshlar olishi mumkin bo'lgan taxminiy kasbiy bilimlarga ajratish mumkin (taxminan).

t/r	O'qitish shakli turlari	O'quvchilar olishi mumkin bo'lgan kasbiy bilimlar % larda
1	Ma'ruza	5-7
2	Tushuntirish	10-13
3	Tarqatma materiallar	20-24
4	Ko'rsatish orqali	25-30
5	Bahs-munozara	50 gacha
6	Amaliy mashg'ulot (amaliyotlar)	70 gacha
7	Integratsiya	80-90 gacha

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, integratsiya uslubi o'qitishda olinadigan natijalarning eng yuqori (samarali) bo'lishini ta'minlaydi

Integratsiya uslubi istiqbolli tizimi (muammoni yechishda har xil kasbiy soha vakillarining birgalikda global muammoni hal qilish) ko'proq amaliy tadqiqot (mashg'ulotlar)da yuqori samara beradi va o'zining ilmiy asoslangan konsepsiyasi (nuqtai nazar, yaxlit ko'rish) bo'lishi kerak. Aytilganlar integratsiyaga kirgan barcha tizimlarga oid xususiy imkoniyatlarga tegishli konsepsiya elementlarini birlashtirish va tartibga tushirishni taqozo etadi (1-shakl).

Ushbu tizimdagi har bir bog'liqliklar mohiyatiga e'tiborni qaratamiz.


1-shakldan ko'rinadiki, uchta bashorat qilinayotgan imkoniyatlar bilan bog'liq o'zaro uzviylik imkoniyatlaridan tashkil topgan. Bularga:

1. Aholining istiqboldagi demografik ko'paytirish bashorati;
2. Ishlab chiqarish (oldin ta'kidlangan korxonlar, transport tashkilotlari va hokazolar)ning istiqboldagi ilmiy asoslangan rivojlanishi bashorati;
3. Yuqoridagi ilmiy asoslangan istiqboldagi bashoratlar asosida respublika uchun qator yillarda qancha va qanday kasbiy mutaxassislar talab qilinishini aniqlashlari kerak.

So'z yuritilgan bashoratlardan foydalanib, yuqoridagi integratsiyani izohlashga urunamiz. Hayotiy tajriba va dalillarga tayanib aytish mumkinki,



1-shakl



makur aloqadorlik ba'zan tushunarsiz va ishonchsiz tahlil qilinadi, natijada gohida sun'iy, gohida tabiiy uzilishlar sodir bo'ladi. Bularga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Demografik imkoniyatlar ishlab chiqarish imkoniyatlaridan oldinga o'tadi (demografik imkoniyatlar > ishlab chiqarishning rivojlanish imkoniyatlari);

2. Demografik imkoniyatlar, ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan hamoxang (parallel) boradi (demografik imkoniyatlar = ishlab chiqarishning rivojlanish imkoniyatlari).

Yuqoridagi bog'lanishlar sxemalaridan ko'rinadiki, birinchi tipdagi aloqadorlik maqsadli kasb tanlash va tayyorlash istiqbolli tizimi imkoniyatlari muvofiqligini ta'minla olmaydi. Chunki, aholi sonining ko'pligi va ishlab chiqarish tarmoqlari (kasb-hunar, barcha sohalardagi mutaxassislar)ning undan ortda qolishi, ya'ni kasb-hunar va boshqa mutaxassislar haddan tashqari soni ko'pligi lekin, ularni ish bilan ta'minlaydigan korxonalar kamligi oqibatida ishsizlar armiyasi vujudga keladi. Natijada ko'pchilik kasb egalari ish izlab boshqa mamlakatlarga borishga majbur bo'ladi.

Shu ma'noda, bog'lanishlar sxemasidagi ikkinchi tipdagi aloqadorlikni muvofiq (optimal) deyish mumkin. Bu esa yoshlarni kasb tanlashga maqsadli tayyorlashda muhim ahamiyatga ega, buni xalqning farovon turmush tarzining vujudga kelishiga poydevor bo'lib ximat qilishi bilan izohlash mumkin.

Mazkur bashoratlar o'z navbatida maqsadli kasbga tayyorlashning har bir xususiy holi uchun o'zaro bog'liqlik uzviyligini ta'minlovchi tizim



imkoniyatlarini tahlili qilish va hisobga olishni taqazo etib, bu uzviyligi imkoniyatlar barcha ta'lim tizimida o'zaro yuqoridagi sxemadagidek chambarchas bog'lanadi.

Avvalo uzluksiz ta'lim tizimi tushunchasini qaytadan tasavvur qilamiz. Umumiy holda uzluksiz ta'lim tizimi har qanday mamlakatning porloq kelajagi, insonlar ravnaqi, ma'rifati, madaniyati yo'lida faoliyat ko'rsatgani uchun, uni xalq ta'limi tizimi deb yuritilishi barchaga ma'lum. Shu ma'noda, fan-ta'lim - ishlab chiqarishning aloqadorligi va bog'liqligi muqarrardir.

Tartib bilan fan, ta'lim ishlab chiqarishning mohiyati, ular o'rtasidagi munosabatlarga e'tiborni qaratamiz.

Fan. Fan haqida Jon Bernal: «Fan - dunyoni kishilar tomonidan tubdan o'zgartirish omilidir» - degan bo'lsa, Albert Eynshteyn uni «Fan-tafakkurning dunyodagi bilish mumkin bo'lgan barcha hodisalarni muayyan bir sistema asosida bog'lash uchun bir necha asr davomida toliqmay qilgan mehnatidir» - deb, yanada kengroq ma'noda ta'riflaydi.

Fanning ta'siri - insonlarning moddiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlari barcha jabhalarida yorqin namoyon bo'lib kelayotgani, hayotiy va tarixiy-ijtimoiy hodisadir. Shu ma'noda fanning ta'lim tizimiga ta'sirini ham inkor etishning iloji yo'q.

Ta'lim. Faqat ishlab chiqarishga mutaxassislar tayyorlab berishdan tashqari, kelajakda kasb-hunar va ilm-fan bilan shug'ullanishni xohlaganlar uchun muhim zaruriy pog'ona ham hisoblanadi.

Ikkinchidan -ta'limda yuqori malakali kasbiy xodimlarining muhim katta armiyasi mehnat qiladi.

Uchinchidan - ta'limning hozirgi kundagi mavjud ko'plab muammoli laboratoriyalari, konstruktorlik byuro va ilmiy jamiyatlaridagi nafaqat magistr, doktorantlar va hatto minglab iqtidorli talabalar hamda o'quvchilar ham ilm-fan va kasb-hunar bilan shug'ullanadi yoki ta'lim bir so'z bilan aytganda, gigant ilmiy potensial (imkoniyatlar)ga ega.

To'rtinchidan - uzluksiz ta'lim tizimida barcha fanlarning o'zini konkret yo'nalishlarda chuqur o'rganiladi. Yuqoridagilarga ko'ra ta'lim (pedagogika) na faqat ishlab chiqarishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida ta'lim fanning ham rivojiga o'rta kuchli darajada ta'sir etadi deyish mumkin.

Ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish yuqorida fanning ta'lim bilan bevosita o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatadigan mutaxassis kadrlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish ham o'z navbatida mavjud muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni fan oldiga vazifa qilib



qo'yishi bilan fanni olg'a harakatlanishga majbur qiladi. Ishlab chiqarishdagi noxushliklar fanda jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni talaba qiladi. Bunday muammolarni hal qilish esa, barcha pedagog va zolimlarni faollikka chorlaydi, fanning yangi tarmoqlarini vujudga keltirish va yangi mahsulotlarni yaratishga olib keladi.

Aytilganlardan kelib chiqib mavzudagi maqsadli kasb tanlashga yo'naltirish va tayyorlashda ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi istiqbollari tizimi faoliyati tahlilini quyidagicha asoslash o'rinli deyish mumkin:

Zamonaviy ta'lim fan yutuqlaridan orqada qolish mumkin (ta'lim < fan < ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha kasblar);

Zamonaviy ta'lim fan yutuqlari bilan hamoxang (parallel) boradi (ta'lim = fan = ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha kasblar);

Zamonaviy ta'lim fan yutuqlaridan oldinga o'tadi (ta'lim > fan > ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha kasblar);

Yuqoridagi mantiqiy bog'lanishlar sxemalaridan uchinchi tipdagi o'zaro aloqadorlikni eng optimal (muvofiq) deyish mumkin. Unga ko'ra zamonaviy pedagogika nafaqat fan yutuqlarini o'rganadi va o'rgatadi hatto yangi fan tamoqlariga mos yangi kasb-hunar va mutaxassisliklarning vujudga kelishiga ham sababchi bo'ladi. Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimida jiddiy olg'a siljishlarga va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi kasb-hunar, mutaxassis kadrlarni maqsadli tayyorlash imkoniyatlarining vujudga kelishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan har tomonlama ijobiy samara beradigan maqsadli kasb tanlashga yo'naltirish hamda kasb tanlashga tayyorlashda ta'lim tizimi va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi istiqbolli tizimini yaratish zamonaviy ta'lim oldida turgan dolzarb muammolardan biri desak xato bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mazkur muammolar (imkoniyatlar)ning nechog'lik darajada hal qilinishi o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga bog'liq, pedagogik mahoratning yagona sharti esa chuqur kasbiy bilim va maqsadli kasb tanlashga yo'naltirish integratsiyasi faoliyatidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-sonli qarori.
2. Tog'ayev X., Ismoilov T., Alqarov Q. Oliy ta'lim tizimida sifatli mutaxassislar tayyorlashning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samaqand-2009 yil.
3. Choriyev R.K. Kasb-hunar ta'limi mazmunini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muammolari. Kasb-hunar ta'lim ilmiy-metodik jurnal № 1 -2000. 15-6.
4. Toshov M.J. Pedagogika kollejlari ta'limi jarayonida pedagogik integratsiyaning mazmuni va tuzilmasini ta'minlash. Dissertatsiya. T.: 2012.-14-b.



5. Yelizarova Y.G. Model vzaimodeystviya shkoli, uchrejeniy SPO, rabotodateley i yeye opisaniye. Sankt-Peterburg. 2020.

6. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern European Scientific Journal. -Germany, 2018. №4. R.251-257.

7. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish holati va takomillashtirish masalalari. Pedagogikajurnali. 2018 yil № 6. 35-43 bet.

8. Qo'ysinov O.A. Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash taraqqiyot me'zoni. «Texnologik va professional ta'limni modernizatsiyalash, muammo va yechimlar» mavzusida respublika miqyosida ilmiy-texnik anjuman. Buxoro. 20.11.2020 yil., 9-12 betlar

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta'lim tizimi va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasida maqsadli kasbga tayyorlashning istiqbolli imkoniyatlari bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В статье излагаются перспективные возможности целевой профессиональной подготовки в системе образования и интеграции производственных предприятий.

SUMMARY

The article outlines the promising possibilities of targeted vocational training in the education system and the integration of industrial enterprises.